

SHAXS O'Z LAYOQATI VA QOBILIYATIDAN FOYDALANGAN HOLDA TO'G'RI KASB TANLASHI-SAMARALI NATIJA KAFOLATI

Suyunova Dildora Halim qizi

TerDU Amaliy psixologiya yo`nalishi talabasi

Kayumova Go`zal Narzullayevna

TerDU Psixologiya kafedrasi o`qituvchisi

ARTICLE INFO.

Kalit so`zlar: Layoqat, kasb tanlash, individual xususiyat, DDS, kasbiy qiziqish, to`g`ri tanlov, umumiy qobiliyat, maxsus qobiliyat.

Annotatsiya


Ushbu ilmiy maqolada kasb tanlashda insondagi maxsus qobiliyatlarning o`rni va ahamiyati to`g`risida so`z boradi. Aynan hozirgi kunda ko`plab yoshlarning kasb tanlashdagi qiyinchiliklarga duch kelishi, o`z imkoniyatlarini to`liq anglamaslik va o`zining asosiy faoliyatini boshqalar ko`magisiz bajara olmaslik muammosi va bu borada olib borilgan tadqiqot hamda uning natijasi bayon etilgan bo`lib, shaxsda ilk bor paydo bo`lgan layoqatni anglash va uni to`g`ri yo`naltirish kerakligi yoritilgan.

<http://www.gospodarkainnowacje.pl/> © 2024 LWAB.

Inson dunyoga kelibdiki, unda turli xususiyatlar, o`ziga xos jihatlar vaqt o`tgan sari namoyon bo`lib boraveradi. Va aynan bir insondagi xususiyatlar takrorlanmas va bebaho hisoblanadi. Biz qobiliyat to`g`risida munozara yuritishimiz mobaynida avvalambor, qobiliyatgacha bo`lgan layoqat to`g`risida to`xtalsak, to`g`riroq bo`lar edi. Layoqat bu inson bilan birga tug`iladigan anatomik-fiziologik xususiyatdir. Aynan qobiliyat rivojlanishining asosi ham layoqatdadir. Qobiliyat rivojlanishining zamirida ham layoqat yotadi. Muayyan bir sharoit vaziyat tug`ilganda layoqat o`zini ko`rsata olishda namoyon bo`ladi. Qobiliyatning rivojlanishi va shakllanishini ta`minlashda ishtirok etadi. Asab analizatorlarining ayrim tug`ma xususiyatlari layoqatni tashkil etadi. Muvaqqat nerv bog`lanishlarning mustahkamligi, tarkib topish tezligi, diqqatni to`plash kuchi, asab tizimining chidamliligi, aqliy ish qobiliyat hamda layoqatga bevosita bog`liq hisoblanadi. Shuningdek, biz turli darsliklarda o`rgangan, birinchi va ikkinchi signal sistemasi faoliyati ham layoqat bilan bevosita bog`liq. Bu signallar sistemasi to`g`risida Rus olimi I.Pavlov yetarlicha ma`lumotlar keltirib o`tgan va oliy nerv faoliyatiga qarab shaxslarni 3 ta tipga ajratgan. Bular: 1) badiiy tip-birinchi signal tizimining nisbatan ustunligi; 2) fikrlovchi tip – ikkinchi signal tizimining nisbatan ustun bo`lishi; 3) aralash tip – ikkala signallar tizimining muvozanati. Badiiy tip kishilari uchun bevosita taassurotlarning yorqinligi, idrok va xotiraning obrazliligi, xayolning boyligi va jonliligi, emotsionallik xarakterlidir. Fikrlovchi tipga mansub kishilar analiz va sistemalashtirishga, umumlashgan, mavhum tafakkurga moyil bo`ladi. Muayyan layoqat mavjud bo`lganda bolada musiqiy, adabiy, badiiy-tasviriy, matematik qobiliyat juda erta shakllanishi va tez rivojlanishi mumkin. Masalan, mashhur kompozitor Motsartda musiqa qobiliyati juda erta namoyon bo`lgan. Bunday ma`lumotlar ba`zida qobiliyatning tug`maligi haqida noto`g`ri xulosa chiqarishga ham sabab bo`ladi. Lekin shuni ham ta`kidlash lozimki, layoqat

qobiliyatning rivojlanishiga kafolat bo'lolmaydi, u qobiliyatning shakllanishi uchun sharoitlardan biridir. Farzand yurt kelajagi, farovon hayot bunyodkoridir. Undagi qobiliyat uchqunlarini payqash va uni alangaga aylanishida ota-ona va pedagoglarning hissasi beqiyosdir. Qobiliyat-individual psixologik xususiyat hisoblanadi. Qobiliyat bilim, ko'nikma, malakalarni egallash kabi jarayonlarga bog'liq bo'ladi. Qobiliyat kishining psixologik va fiziologik tuzilishi xususiyatidir. Qobiliyat bilim olish uchun zaruriy shart-sharoit bo'lib, shuning bilan birga u ma'lum darajada bilim olish mahsuli hamdir. Umumiy va maxsus bilimlarni o'zlashtirish, shuningdek, kasbiy ko'nikmalarni egallab olish jarayonida qobiliyat mukamallashib va rivojlanib boradi. Qobiliyatga yaqinroq turadigan tushunchalar ko'nikma va malakadir. Ular faoliyat mexanizmini tashkil qiladilar. Hamda, ular qobiliyat bilan birgalikda mahoratga erishishni ta'minlaydilarki, buning natijasida mehnatda katta yutuqlar qo'lga kiritiladi. Umumiy qobiliyatlar – bu umuminsoniy faoliyat turlari: mehnat, ta'lim, o'yin, bir-biri bilan muloqotga bo'lgan qobiliyatlar. Ular u yoki bu darajada barcha odamlarga xos. Bu guruhga mansub qobiliyatlar har biri shaxs xossalariining murakkab tarkibini tashkil etadi. Maxsus qobiliyatlar turli darajada emas, umuman barcha odamlarga xos bo'lmagan qobiliyatlar. Ular inson madaniyati tarixi jarayonida yuzaga keladigan ma'lum kasbiy faoliyatga bo'lgan qobiliyatlar hisoblanadi. Ular, odatda, kasbiy qobiliyatlar deb ataladi.

Tadqiqot va natijalar tahlili. Aynan qobiliyatlarining kasbda nechog'liq ahamiyatli ekanligini aniqlash maqsadida, psixologiya yo'nalishi talabalarida E.A.Klimovning "Differensial diagnostik so'rovnoma" va kasbiy qiziqishni aniqlovchi so'rovnoma olindi. DDS natijalariga ko'ra, 1. Odam-tabiati- 12%, 2. Odam-texnika- 4%, 3. Odam-odami- 44%, 4. Odam-belgilar tizimi- 8%, 5. Odam-badiiy obraz- 32% natijani qayd etdi. Va bundan tashqari olingan kasbiy qiziqishni aniqlovchi so'rovnoma ham o'z natijasiga ega. Bunda 3 ta shkaladan foydalanildi, ammo asosiy so'rovnomaning mohiyati yozma ravishda bayon qilinadigan savolda edi. Bunga ko'ra, talabalarga yoshligingizda boshqa bir kasb egasi bo'lishni xohlar edingizmi va nima uchun aynan hozirda shu kasbni tanladingiz savollari berilgan edi. Natijaga ko'ra, umumiy sinalluvchilarning 36%i boshqa kasbni tanlashni xohlagani, ammo oilaviy sharoiti, yo'nalish ballining past deb o'ylagani, holi ham boshqa kasbni tanlashni xohlashini yozib o'tgan. Suhbat metodi orqali ular bilan suhbat o'tkazilganda, ularda qobiliyat uchqunlari bo'lgan, ammo ota-onasi va yaqinlari bu bilan pul topib bo'lmasligini, bundan voz kechishni aytgan. Ammo hozir kunda ham u o'sha qobiliyati ustida ishlashni xohlashi aniqlandi. Kasb insonning bir umrlik do'sti. Biz tadqiqotimizdan bilishimiz mumkinki, hamma ham layoqatga ega bo'ladi, ammo u rivojlantirilib alangalatilmaydi. Va o'z xohishlarini vaqtida angelay olmagan inson, keyinchalik, o'z xatolarini angelay boshlaydi. Har bir inson o'z individual xususiyatlariga ega va u takrorlanmasdir. Kelajakda ma'lum bir kasb egasi bo'lishda inson har doim o'ylab, keyin, tanlovini amalga oshirishi lozim.



Xulosa: Qobiliyatlar baravar rivojlanmaydi: bilim va tajribaning to'planish me'yoriga ko'ra, birlari – oldinroq, boshqalari – kechroq taraqqiy etadi. Barchasidan avval musiqiy, so'ngra tasviriy qobiliyatlar rivojlanadi. She'riyatga bo'lgan qobiliyat o'smirlik yoshida jadal rivojlanadi, fanlarga bo'lgan qobiliyatlar orasida matematikaga bo'lgan qobiliyat erta rivojlanadi. Bir xil qobiliyatlar faoliyat va tarbiya sharoitlariga bog'liq ravishda yoki juda tez, yoki juda sekin maromda rivojlanishi mumkin. Izlanishdan to'xtash, xotirjamlik va o'zidan mamnunlik qobiliyatlar rivojlanish maromini keskin pasaytirishi mumkin. Oliy o'quv yurtlari talabalari uchun kasbiy qobiliyatlarining shakllanishi o'qitishning birinchi kunlaridan boshlab o'quv-tarbiyaviy ishlarning yaxlit tizimi vositasida amalga oshirilishi muhimdir. Ma'lum kasb tomonidan talabaga qo'yilayotgan psixologik talablarni tushungan holda, uning kasbiy qobiliyatlarini to'g'ri baholash va ularni rivojlantirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Narzullayevna, K. G. Z. (2023). Destruktiv xulq-atvor nazariyalari. Technical science research in Uzbekistan, 1(5), 65-67.
2. Kayumova, G., & Suyunova, D. (2023). The role of parents and teachers in the disclosure of a child's ability. Models and methods in modern science, 2(1), 133-135.
3. Kayumova, G. Z. N. (2024). SHARQ MUTAFAKKIRLARINING OILA MUSTAHKAMLIGINING ME'ZONLARI XUSUSIDAGI QARASHLARI. INTERNATIONAL SCIENCES, EDUCATION AND NEW LEARNING TECHNOLOGIES, 1(5), 28-31.
4. Kayumova, G. N. (2024). PSYCHOLOGICAL STUDY OF DESTRUCTURE OF FAMILY RELATIONS. Educational Research in Universal Sciences, 3(3), 151-153.
5. Sanjarbek ogli, X. S., & Narzullayevna, Q. G. (2023). YOSH DAVRLARI PSIXOLOGIYASINING BOLA QOBILIYATINING NAMOYON BOLISHIDAGI ORNI. Новости образования: исследование в XXI веке, 1(11), 1081-1082.
6. Xaydarov.F.I, Xalilova.N.I.Umumiy psixologiya.-T.:”Nizomiy nomidagi TDPU”, 2010.247b.